




## XORAZM VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT (dastlabki ma'lumot)

**Doimiy aholi soni.** Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2021- yil 1- iyul holatiga 1 904,3 ming kishini tashkil etib, 2021- yil boshidan 11 ming kishiga yoki 0,6% ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 630,2 ming kishini ( jami aholi sonidagi ulushi 33,1 %), qishloq aholisi soni 1 274,1 ming kishini (66,9 %) tashkil etdi.




**Doimiy aholi sonini hisoblanishi** hisobot yili boshidagi aholi soniga hisobot davridagi tug'ilganlar va ko'chib kelganlar sonini qo'shib, o'lganlar va ko'chib ketganlar sonini ayirib tashlash natijasida hosil bo'ladi.




### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra)






### Shahar va tumanlar kesimida aholi soni (yanvar - iyun, ming kishi)



### Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021-yil 1-iyul holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %)






## Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi soni (1-iyul holatiga)

	2020-y.	2021-y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1876,6</b>	<b>1904,3</b>	<b>101,5</b>
Urganch sh.	144,4	145,5	100,8
Xiva sh.	92,5	94,3	101,9
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	164,8	167,6	101,7
Gurlan	148,5	150,3	101,2
Qo'shko'pir	172,3	174,4	101,2
Urganch	199,2	203,1	102,0
Hazorasp	194,0	196,3	101,2
Tuproqqa'l'a	55,2	56,5	102,4
Xonqa	186,6	189,4	101,5
Xiva	145,5	148,0	101,7
Shovot	170,0	172,6	101,5
Yangiariq	116,2	117,8	101,4
Yangibozor	87,4	88,5	101,3


Viloyat kesimidagi tahlillarga ko'ra, 2021- yil 1- iyul holatiga eng ko'p aholi soni Urganch tumanida qayd etilib, viloyat aholisi sonidagi ulushi 10,7 % ni tashkil etgan, keyingi o'rinnlarda Hazorasp tumanida 10,3 %, Xonqa tumanida 9,9 % va Qo'shko'pir tumanida 9,2 % ni tashkil etgan.

### Tug'ilganlar soni

(2021- yil yanvar-iyun holatiga, kishida)




### Tug'ilganlar koeffitsiyenti ( yanvar-iyun holatiga, promille)



*Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bolsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm. va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*



### Vafot etganlar soni (2021- yil yanvar-iyun holatiga, kishida)




### Vafot etganlar koeffitsiyenti ( yanvar-iyun holatiga, promille)




2021- yil yanvar-iyun oylarida **4 324** ta vafot qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,6** promilleni tashkil etdi hamda 2020-yilga nisbatan **0,4** promillega oshganligi kuzatildi (**2020-yilda 4,2 promilleni tashkil etgan**).



### Tuzilgan nikohlar soni (2021- yil yanvar-iyun holatiga, kishida)




### Tuzilgan nikohlar koeffitsiyenti ( yanvar-iyun holatiga, promille)




2021- yil yanvar-iyun oylarida **7 714** ta nikoh qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh koeffitsiyenti **8,2** promilleni tashkil etdi hamda 2020-yilga nisbatan **1,8** promillega oshganligi kuzatildi (2020- yilda **6,4** promilleni tashkil etgan).



## Nikohdan ajrashganlar soni (2021- yil yanvar-iyun holatiga, kishida)




## Nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti ( yanvar-iyun holatiga, promille)




2021- yil yanvar-iyun oylarida **753** ta nikohdan ajrashganlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **0,8** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilga nisbatan **0,3** promillega oshganligi kuzatildi (**2020- yilda 0,5 promilleni tashkil etgan**).

**Shahar va tumanlar kesimida go'daklar o'limi soni  
(2021- yil yanvar-iyun holatiga, kishida)**




**O'lim koeffitsiyentlari to'g'risida ma'lumot  
(2021- yil yanvar-iyun, promille)**



Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,3 ming nafarni tashkil etib, ularning 70,7 % - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 8,8 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 12,1 % - tug'ma anomaliyalardan, 6,2 % - yuqumli va parazitar kasalliklardan va 2,2 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi**  
*(2021- yil yanvar-iyun holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, % da)*





**Kasallik sabablari** 2021- yil yanvar-iyun, %


	Qon aylanish tizimi kasalliklari	61,2 %
	O'simtalari	10,0 %
	Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan	5,4 %
	Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari	4,1 %
	Nafas olish a'zolari kasalliklari	3,9 %
	Yuqumli va parazitar kasalliklari	0,9 %
	Boshqa kasalliklar	14,5 %



### Ko'chib kelganlar soni (2021- yil yanvar-iyun holatiga, kishida)




### Ko'chib kelganlar koeffitsiyenti ( yanvar-iyun holatiga, promille)




2021- yil yanvar-iyun oylarida **6 420** ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ko'chib kelganlar koeffitsiyenti **6,8** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilga nisbatan **4,3** promillega oshganligi kuzatildi (2020- yilda **2,5** promilleni tashkil etgan).



### Ko'chib ketganlar soni (2021- yil yanvar-iyun holatiga, kishida)



### Ko'chib ketganlar koeffitsiyenti (yanvar-iyun holatiga, promille)



2021- yil yanvar-iyun oylarida **7 626** ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ko'chib ketganlar koeffitsiyenti **8,1** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilga nisbatan **3,7** promillega oshganligi kuzatildi (**2020- yilda 4,4 promilleni tashkil etgan**).



## Aholi migratsiyasi

*ming kishi*

	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	2,3	6,4
Ko'chib ketganlar	4,1	7,6
Migratsiya saldosi	-1,8	-1,2

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Hazorasp (minus 1,4 ming kishi), Xiva (minus 0,4 ming kishi), Shovot (minus 0,3 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Tuproqqa'l'a tumanida (plus 1,1 ming kishi ), Urganch tumanida ( plus 0,6 ming kishi) kuzatildi.



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat  
statistikasi bo'limi  
tel : (62)2246508